



UDK: 94(575.1)

*Lutfiya SALOMOVA,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: salomovalutfiya9@gmail.com*

*PhD J.Adilov taqrizi asosida*

## HISTORICAL ANALYSIS OF DOCUMENTS ON MOTHER AND CHILD PROTECTION DURING THE TURKISTAN ASSR

Annotation

This article analyzes archival documents related to the protection of motherhood and childhood in the Turkestan ASSR. Based on materials from the National Archives of Uzbekistan, the activities of the People's Commissariat of Health and its departments are studied. Special attention is given to the institutional development, sanitary conditions of orphanages, medical services, and the socio-economic challenges of the early Soviet period. The study reveals that despite severe economic difficulties, systematic measures were undertaken to protect mothers and children. The scientific novelty lies in the introduction of previously underutilized archival materials into academic circulation.

**Key words:** Turkestan ASSR, mother and child protection, health system, orphanages, sanitary supervision, archival documents, People's Commissariat of Health.

## ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОКУМЕНТОВ ПО ЗАЩИТЕ МАТЕРИ И РЕБЕНКА В ПЕРИОД ТУРКИСТАНСКОЙ АССР

Аннотация

В статье проводится историко-аналитическое исследование архивных документов по охране материнства и детства в Туркестанской АССР. На основе материалов Национального архива Узбекистана изучена деятельность Народного комиссариата здравоохранения, санитарное состояние детских домов и проблемы финансирования. Показано, что несмотря на сложные социально-экономические условия, предпринимались системные меры по защите матерей и детей.

**Ключевые слова:** Туркестанская АССР, охрана материнства и детства, здравоохранение, детские дома, санитарный контроль, архивные документы.

## TURKISTON ASSR DAVRIDA ONA VA BOLA MUHOFAZASIGA OID HUIJATLARNING TARIXIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Milliy arxiv fondlarida Turkiston ASSR davridagi ona va bola muhofazasi tizimni tashkil etish tarixiga oid arxiv hujjatlari tarixiy-manbaviy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, ona va bola muhofazasi tizimi, uning respublikada tashkil etilgan bo'limmalari, bolalar uylarning faoliyati va ona va bola salomatligini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan tizimli chora haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Turkiston ASSR, ona va bola muhofazasi, sog'liqni saqlash tizimi, bolalar uylari, sanitariya nazorati, arxiv hujjatlari.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-2022 yillarda onalar o'limi ko'rsatkichi 1,5 baravarga, go'daklar o'limi esa 1,3 baravarga kamayishiga erishildi. Ushbu natijalarga erishishda nafaqat tibbiy buyumlar va maxsus oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash balki ularga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish ko'lami ham kengaytirildi.

Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yil 1 oktabrdan boshlab Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika "Ona va bola skrining" markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining tashkil etilishi ham respublikada ushbu sohaga qaratilayotgan e'tibordan dalolat beradi.

Oktabr voqealaridan so'ng nafaqat Turkistonda, balki, Butun Rossiyada ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat izdan chiqib ketdi. Fuqarolik urushi natijasida ham ko'p bolalar qarovsiz, otanasiz qolib ketdi. Ko'plab kasalliklarning tarqalishi, epidemiologik vaziyatning kuchayishi esa bolalar o'limining ko'payishiga olib keldi.

O'zbekistonda ona va bola muhofazasi bo'limini tashkil etilishi sovet hokimiyatini tashkil etilishi bilan bog'liq hisoblanadi. Rossiyada bolalar o'limiga qarshi kurashish maqsadida Ona va bolani muhofaza qilish komissiyasi tuzildi. Oktabr voqealaridan keyin davlat imtiyozlari komissarligi tashkil etilib, uning qoshida ona va bola muhofazasi bo'limi tashkil etilgan. Uning birinchi boshlig'i N.D.Korolev etib tayinlangan. Ushbu bo'limning vazifalariga ona va bolalarni davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilish, RSFSRda ona va bola muhofazasini ta'minlash uchun yagona boshqaruv tizimini tashkil etishdan iborat bo'lgan[1].

Ushbu tarixiy jarayonlarga oid ma'lumotlar bugungi kunda O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlarida saqlanib qolgan. Ushbu hujjatlar bugungi qadar tarixiy manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganilmagan bo'lib, ushbu mavzu manbashunoslik nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzu doirasida bugungi kungacha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ular orasida G.I. Dembo va S.D. Asfendiarovlarning ishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ushbu mualliflar mavzu bo'yicha o'z tadqiqotlarida qisman to'xtalib o'tishgan.

Ta'kidlash lozimki, mavzu doirasida alohida tadqiqotlar ham amalga oshirilgan bo'lib, D.M.Niyazov[2]

faqatgina Turkistonda bolalar sog'lig'ini saqlash masalalariga to'xtalib o'tgan bo'lsa, N.M.Maxmudova[3] O'zbekistonda ona va bolalar sog'lig'ini saqlash tarixi masalalarini yoritib o'tgan. Shuningdek, Y. A. Atabekov sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishi, M.N. Sirotinskiy[4]. Toshkent viloyatida sog'liqni saqlash tizimini yo'lga quyilishi masalalari, A.B.Bakiyev[5] o'z tadqiqotida O'zbekistonda varch shifokor kadrlar tayyorlash masalalariga e'tibor qaratgan.

Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra, ular tarixiy yo'nalishda olib borilgan bo'lib, O'zbekiston Milliy arxividagi ona va bola muxofazasiga oid tarixiy hujjatlarining manbaviy ahamiyatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda 1920–1923-yillarga oid rasmiy hisobotlar, sanitariya nazorati hujjatlari, komissarlik bayonnomalari tarixiy manbashunoslik, hujjatshunoslik, tarixiylik va xronologik, statistik tahlil tadqiqot usullaridan foydalangan holda ilmiy muomalaga kiritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ona bola muhofazasi bo'limi dastlab Ijtimoiy ta'minot komissarligi tasarrufida bo'lgan bo'lib, 1920 yildan ushbu bo'lim faoliyati Sog'liqni saqlash komissarligi tasarrufiga o'tkazilgan.

Arxivda saqlangan hujjatlarda ma'lumot berilishicha, 1921 yilda 800 o'ringa mo'ljallangan 13 ta yasli, 10 chaqaloqlar uyi (dom vladelsev), 2 ta ona va bola, 5 ta maslahat markazlari faoliyat olib borgan[6].

O'zbekiston milliy arxivida aynan Turkistondagi Ona va bola muhofazasi faoliyatiga ko'plab tarixiy hujjatlar saqlanib qolgan.

Arxivda 1921 yilga oid "Svedeniya o detskix uchrejeniyax NKZ Turkrespubliki" deb nomlangan hujjat saqlangan bo'lib, unda respublika bo'yicha bolalar markazlari haqida ma'lumot berib o'tilgan. Hujjatda ma'lumot berilishicha, o'lkada jami 28 ta bolalar muhofaza bo'limlari bo'lgan. Ulardan 16 tasi alohida bo'lim, 4 tasi maslahat beruvchi, 13 ta yasli, 9 ta chaqaloqlar uyi, ona va bola uyi 2 ta, kurslar 2 ta bo'lgan.

Ushbu onalar va bolalar bo'limlari Toshkent, Perovsk, Chernyayeva, Mirzacho'l, Samarqand, Jizzax, Poltoratsk, Marv, Krasnovodsk, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Xo'jand, Olmaota shaharlarida bo'lgan. Kurslar Toshkent va Samarqand shaharlarida bo'lib, ularda o'qish 1 yillik va 3 oylik bo'lgan[7].

Hujjatlar bilan tanishish asnosida aytish mumkinki, Turkiston o'lkasida og'ir sharoitlarga qaramay ona va bola sog'lig'i masalalariga alohida e'tibor qaratilganiga guvoh bo'lish mumkin. Hujjatlarda ma'lumot berilishicha, 1920 yil 1 iyulda dastlab Toshkentda keyin Samarqandda "Sog'lom Ona va bola" ko'chma ko'rgazmasi tashkil etilgan. Ko'rgazma "Krasniy vostok" poyezdida tashkil etilib, 1920 yilning birinchi yarmida butun Turkiston bshylab tashkil etilgan. Toshkent shahridan keyin Samarqandda tashkil etilgan.

1922 yil oktabr oyidan sog'liqni saqlash sohasi mahalliy budjetlarga o'tkazilishi aynan, Ona va bola muhofazasi masalasida ham ahvol yomonlashgan. Bolalar uylari Toshkentda – 2, Samarqandda – 1, Marvda – 1, Qorako'lda – 1, Skobelev (Farg'ona) - 1 ta, Andijonda - 1 ta, Namanganda – 1 ta respublika bo'yicha jami 8 ta bolalar uylari qisqargan. Sog'liqni saqlash komissarligi tasarrufida Toshkent (2 ta) va Samarqandda (1 ta) ta bolalar uyi qolgan.

Hisobotlarda qayd etilishicha, 1922 yil oktabr oyidan Bolalar uylari ham mahalliy budjet hisobiga o'tkazilgan. Natijada, Bolalar uylari zaruriy jihozlar va oziq-ovqat maxsulotlari bilan yetarlicha, ta'minlanmagan. Masalan, Kattaqo'rg'onda bolalar uylaridan bolalarning qochib ketib, ko'chalarda yurib tilanchilik qilib yurishganini ham hisobotda qayd etilgan. Internat va maktablarda respublika bo'yicha 141 ta sanitar shifokor yetishmasligi natijasida ular sanitar gigiyenik nazoratsiz qolib ketgan[8].

Turkiston Iqtisodiy kengashida Sog'liqni saqlash komissari tomonidan taqdim etilgan hisobotida ma'lumot berilishicha, 1922 yil aprel holatiga ko'ra, Turkiston ASSR Sog'liqni saqlash komissarligi tasarrufida 27 ta ona va bola muxofazasi muassasalari va 5 ta maslahat markazlari bo'lgan. 1920 yildan ushbu bo'limlarning viloyatlarning mahalliy budjetidan mablag'lashrilishiga o'tkazilishi ularning faoliyatini yanada og'ir ahvolga solib qo'ygan. Agarda vaziyat shu holatda davom etsa 50%qisqarib ketishi haqida hisobot berilgan. Hukumat tomonidan ushbu tashkilotni otaliqqa olish taklifi kiritilgan bo'lsa, shu yili faqatgina Xalq xo'jaligi Markaziy Kengashiga 1 ta bolalar uyi va "Tashsam"ga 1 ta yaslini biriktirishga muvaffaq bo'lingan[9].

Ta'kidlash o'rinliki, ona va bola sog'lini asrash borasida o'lka tashkil etilgan dastlabki yillarda Sog'liqni saqlash xalq komissarligi va fidoyi shifokorlar tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

Hujjatlarda qayd etilishicha, 1920 yilda Samarqand shahrida 2 ta 15-25 ta bolalar uchun bog'cha, viloyat bo'yicha shifoxonalarda jami 936 ta yotish o'rnidan bolalar uchun 105 ta, shundan 30 tasi emizikli bolalar, 40 ta joy esa bog'cha bolalari uchun ajratilgan[10].

Shuningdek, ushbu yig'majildning Farg'ona viloyati bo'yicha berilgan hisobotida qayd etilishicha, Qo'qon, Namangan va O'shda mahalliy ayollar va bolalar uchun davolash uchastkalari bo'lgan. Ushbu yig'majildning boshqa sahifasidagi Farg'ona viloyati SSBda xizmat qiluvchi rahbar xodimlar ro'yhatida (1921 yil may oyi bo'yicha) Farg'ona shahar bo'limi Bolalar bo'limi boshlig'i – Frida Fritseva Graudin (farmatsevt), Marg'ilon Bolalar bo'limi boshlig'i – Mariya Adamovna Rachinskaya, O'sh shahar Bolalar bo'limi boshlig'i – Mixaylov (lek.pom)lar ishlagini haqida ma'lumot keltirib o'tiladi[11].

Turkiston ASSR sog'liqni saqlash komissarligining hujjatlarida qayd etilishicha, 1921 yilda respublika bo'yicha 800 o'ringa mo'ljallangan 13 ta yasli, 10 ta chaqaloqlar uyi (dom mladensev), 2 ta ona va bola, 5 ta maslahat markazlari bo'lgan.

**Xulosa va takliflar.** Turkiston ASSR davrida ona va bola muhofazasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllangan. Davlat tomonidan maxsus bo'limlar tashkil etilib, muayyan statistik hisob va nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan. Moliyaviy qiyinchiliklar, moddiy-texnik bazaning zaifligi va sanitariya sharoitining talab darajasida emasligi tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ona va bola salomatligini muhofaza qilish bo'yicha institutsional asoslar yaratilgan.

Mazkur tajriba bugungi sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish jarayonida tarixiy saboq sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda arxiv materiallarini to'liq raqamlashtirish, hududiy kesimda qo'shimcha tadqiqotlar olib borish, sog'liqni saqlash tarixini zamonaviy islohotlar bilan qiyosiy o'rganish dolzab hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zMA, R-40 fond, 1-ro'yxat, materiallari.
2. Ниязов Д.М. Охрана здоровья детей в Туркестанской республике в 1917–1924 гг. // Советское здравоохранение. – 1962. – № 12. – С. 47–48.

3. Махмудова Н.М. Ўзбекистонда она ва болалар соғлигини сақлаш. Ўзбекистон КП Марказий Комитетининг нашриёти. – Тошкент, 1971.
4. Сиротинский М.Н. Здравоохранение Ташкентской области и перспективы его развития: Автореф. дисс. канд. мед. наук. –Ташкент, 1966;
5. Бакиев А. Б. История и современное подготовки врачебных кадров в Узбекской ССР.: Автореф. дисс. канд. мед. наук – Фрунзе, 1968;
6. O'zMA, R-40-fond, 1-ro'uxat, 138-yig'majild, 55-varaq.
7. O'zMA, R-40-fond, 1-ro'uxat, 261-yig'majild, 8-varaq.
8. O'zMA, R-40-fond, 1-ro'uxat, 260-yig'majild, 4-varaq.
9. Отчет Совета народных комиссариатов и Экономического Совета Туркестанской Республики на 1-ое октября 1922 г. Издания ТЭСа. – Ташкент: 1922 г. –С.476.
10. O'zMA, R-40-fond, 1-ro'uxat, 47-yig'majild, 52-varaq orqasi.
11. O'zMA, R-40-fond, 1-ro'uxat, 47-yig'majild, 252-253-varaqlar.